

AFSONALAR BADIYYATIDA XALQONA TARBIYA

Mo'minova Naziraxon

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

O'zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola afsonalardagi epik qahramonlar o'zlarining syujet tizimidagi harkatlari orqali tinglovchilarning axloqiy tarbiyasiga ta'sir o'tkazish xususiyatlariga ega ekanligi haqida.*

Kalit so'zlar: *milliy g'ururni shakllantirish, milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, mifologik obrazlar, afsonalarda epik qahramonning sarguzashtlari orqali milliy g'ururni shakllantirish.*

O'zbek xalq afsonalarida hayvonlar obrazining badiiy talqini alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, insoniyat azal-azaldan hayvonot olamiga qiziqish bilan qaragan. Hayvonlarga nisbatan turlicha munosabat xalqning nafaqat turmush tarzi, urf-odatlarini, marosimlari, irim-sirimlari, balki badiiy ijodiga ham ta'sir ko'rsatgan. Bu hodisaning isbotini o'zbek folklorida ko'p kuzatish mumkin. Chunonchi, xalq og'zaki ijodining mif, afsona, rivoyat, ertak, maqol va topishmoq, doston va qo'shiq kabi janrlarida turli hayvon nomlari uchrashi bejiz emas. Xalq hayvonlar obrazini har doim majoziy ma'noda qo'llab, shu orqali atrofdagilarni turli xulosalar chiqarishga undagan. Insonlardagi illatlarni yirtqich hayvonlar, yaxshi sifatlarni esa yuvosh va foydali hayvonlar obraziga singdirib, shu orqali o'z maqsadlarini badiiy ifoda etganlar.

Qadimgi miflarda ho'kiz, baliq, toshbaqa, qurbaqa, kit kabi jonivorlar yerning tayanchi sifatida talqin qilingani kuzatiladi. O'zbek afsonalarida esa ot, bo'ri, tuya, it kabi hayvon obrazlari turli badiiy-estetik vazifalarda keng talqin qilingan. Chunki qadimdan ajdodlarimiz ot, tuya, ho'kiz, it kabi jonzotlardan turli maqsadlarda foydalanib kelgan. Insonga turmushda ko'makdosh bo'lib kelgan hayvonlarga nisbatan e'tiqodni oshirish maqsadida, odatda, afsonalarda ularning timsoli xayoliy uydirma asosida muqaddaslashtiriladi, mo'jizaviy va ilohiy qilib ko'rsatiladi. Shunga ko'ra, afsonalarda uchar ot, oq tuya kabi g'aroyib hayvonlar obrazi alohida o'rin tutadi. Bunday obrazlar orqali yosh avlodni umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirish g'oyasi yotadi.

Uchar ot obrazi, asosan, toponimik afsonalarda ko'p uchraydigan an'anaviy obrazlardan biridir. Xususan, toponimik afsonalarda ma'lum bir joyning kelib chiqishi uchar otlarga bog'lab talqin qilinadi. Bunga "Ming otning qo'lga tushirilishi" afsonasi syujeti misol bo'la oladi. Aytishlaricha, qadimda bir shahar o'rnini qalin saksovluzor egallagan bo'lib, bu yerda beshta buloq bor ekan. Sehrli qanotli otlar galasi uchib kelib, shu buloqdan suv icharkan. Sulaymon ismli bir kishi ularni qo'lga o'rgatmoqchi bo'libdi.

Buning uchun u bir sehgarning maslahati bilan buloq suviga may aralastiribdn. Shundan keyin mingga yaqin afsonaviy ot uchib kelib, buloq suvidan ichib, mast bo'lib qolishibdi. Parvoz qila olmay qolgan otlarni Sulaymon qo'lga tushirib, qanotlarini qirqib tashlabdi. Natijada bu otlar qanotidan ayrilib, yerda yuradigan hayvon bo'lib qolishibdi. Shundan so'ng ot nasli odamning yaqin do'sti va xizmatkoriga aylanib qolgan ekan.

Insoniyat dastlabki xonakilashtirgan, o'ziga o'rgatib olgan jonzotlardan biri bu itdir. Shu sababli itga odamlar orasida munosabat ancha ijobiy. Ammo itning salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjudligi bois, bu xususiyatlar har bir folklor namunasida turlicha yoritilgan. Insonning turmush tarziga yo'ldosh, vafodor do'st, yordamchi kuch, ayniqsa, cho'pon-cho'liqlarning doimiy hamrohi, ko'makchisi bo'lgan bu jonivor ba'zida nihoyatda ko'klarga ko'tarilib, muqaddaslashtirish darajasida obrazlantirilganligi kuzatiladi.

Insonlar itga alohida munosabatda bo'lganligi necha yillardan buyon saqlanib kelayotgan xalq orasidagi irim-sirimlar orqali ayonlashadi. Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqqa og'ir chilla tushsa, (buning belgisi sifatida chaqaloq tanasiga yara-chaqa toshib ketadi. U 7 oydan to 1 yilgacha davom etishi mumkin. Uni o'lgan it ko'milgan joyga yumalatib olinadi va egniga "it ko'ylak" deb yuritiladigan maxsus ko'ylak kiydirib qo'yiladi. Farzandi yo'q ayollar esa kuchuk bolalari bo'lgan it uyasi ustidan sakratiladi. Yoki yana bir irim – ko'zga govmijja chiqsa, itga salom beriladi.

Shunday qilinsa, chiqqan govmijja o'z-o'zidan qaytib ketadi degan e'tiqod bor. Itning terisidan oyoq og'rig'iga, yog'idan oyoq, qo'l, bel og'rig'iga, shamollashga, go'shtidan o'pka shamollashiga davo sifatida foydalaniladi.

It haqidagi afsonaviy qarashlar keyinchalik ertaklarda it obrazining alohida badiiy talqin etilishiga olib kelgan. Ertaklarda it obrazi alohida o'rin tutadi va turli badiiy vazifalarda talqin qilinadi. Jumladan, ertaklarda it obrazi ko'pincha vafodor va sodiq hamroh, yo'ldosh, homiy-ko'makchi poetik vazifalarida keladi.

Xullas, o'zbek folklorida it, ot, tuya, ho'kiz va hokazo kabi hayvonlar obrazi alohida o'rin tutadi va ular turlicha o'ziga xos badiiy-estetik vazifalarda keng talqin qilinadi.

Afsonalarda **baliq va baliqchi obrazlari** ham alohida o'rin tutadi. Jumladan, "Balqchi", "Baliqli mozor" singari afsonalarning mavjudligi bu jihatdan fikrmizni dalillay oladi.

E'tibor berilsa, ayrim ziyoratgohlar baliqli hovuzlari bilan mashhur. Bunga Nurota, Boysun, Andijon, Namangan singari qator hududlardagi baliqli ziyoratgohlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Odatda, bunday baliqlar iste'mol qilinmaydi. Chunki ularni mahalliy aholi baliq qiyofasidagi avliyo yoki pari sifatida talqin qiladi. Aslida bunday afsonaviy qarashlarning ildizi baliq kulti haqidagi qadimiy mifologik tushunchalarga borib taqaladi. Zero, baliq kulti bilan bog'liq asotiriy qarashlar O'rta

Osiyoda yashovchi boshqa xalqlar singari o'zbeklar orasida ham keng tarqalgan.³⁰ Hatto Avesto'da ham g'aroyib baliq Kara obrazi uchraydi. U Farog' Kart daryosida yashab, kavakirna daraxtini yovuz dev – Ahrimanning zararidan saqlaydi.³¹

Olamning tuzilishi haqidagi miflarda yer sharini ulkan nahang baliq ko'tarib turganligi aytiladi. Shuning uchun olamning taqdiri, ayniqsa, uning osoyishtaligi, hatto intihosi baliqqa bog'lab talqin etiladi. Mana shu kabi mifologik qarashlar baliqlarni muqaddaslashtirishga asos bo'lgan.

Baliqlarni muqaddaslashtirish shumerlar va boshqa turkiy xalqlar mifologiyasiga ham xosdir. Jumladan, shumerlar suv toshqinlari xudosi Yea timsolini baliq bilan bog'lagan bo'lsalar,³² qadimgi turklar kerbaliq yoki kyorbalyqni yer osti olamida yashovchi afsonaviy jonzot sifatida tasavvur qilishgan.³³

N.Logafet, A.Ashirov singari etnograflar yuzdan ortiq o'zbek urug'i nomlari orasida "baliqchi" degan umumturkiy etnonim ham alohida o'rin tutishini e'tirof etadilar. A.Ashirov qayd etganidek, shu urug'ga mansub kishilar yashab turgan yerlariga o'zlarining nomlarini berganlar. Buning natijasida ana shu urug' nomi bilan yuritiluvchi qator etnotoponimlar paydo bo'lgan.³⁴

Baliq kulti haqidagi qarashlar hozirgacha saqlanib kelayotir. Jumladan, sariq kasali (gepatit)ga chalingan bemorni baliqqa qaratish yoki ro'za tutishdan oldin poklanish maqsadida baliq iste'mol qilish singari odatlarda baliq kulti bilan bog'liq qarashlarning izlari saqlanib qolgan.

Xorazmning paydo bo'lishi haqidagi "Olov va baliq" rivoyatida baliq go'shti (razm)ni olov (xor)da pishirib yeyishni o'rgangan odamlarning ochlikdan qutulib, tirik qolishi bejiz hikoya qilinmagan. Bu bilan baliqning insonga homiyligiga urg'u berilgan.

Qadim-qadimlardan **pilla (ipak) qurti** "muqaddas", "tabarruk" sanalib kelingan. U bor joyga kechalari chiroq yoqib qo'yilgan, pillaxonalarga isiriq, ko'z tikanlar, tumorlar taqib qo'yilgan, "ko'z"i bor kishilar qurt boqilayotgan yerga yo'latilmagan. Hatto, pilla qurtlari sizlangan, ular dahaga kirganda hech kimga ko'rsatilmagan.

Bunday afsonalar misolida xalq epik tafakkurining afsona – ishonch – irim ko'rinishida rivojlanib borganligini anglash mumkin.

Xalq **kapalakni** ham afsonaviylashtiradi. Shuning uchun o'zbek xalq afsonalarida **kapalak obrazi alohida o'rin tutadi.**

Afsonalarda **daraxtlar obrazi** ham alohida o'rin tutadi. Xalq orasida yong'oq, jiyda, anjir, tut, chinor, terak, archa daraxtlari haqida aytilgan afsonalar keng tarqalgan. Ularda,

³⁰ Снесарев Г.П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – М.: Наука, 1983. – С.82; Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.28-29.

³¹ **Авесто. А.Маҳкам таржимаси, 357-бет.**

³² Робакадзе А.И. К вопросу о некоторых пережитках культа рыбы // СЭ. Том 3. – М., 1948. – С.127.

³³ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.28-29.

³⁴ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.29.

asosan, shu daraxtlarning kelib chiqishi, o'ziga xos afsonaviy xislati to'g'risida epik xabar beriladi.

Qadimda odamlar daraxtlarni jonli deb qabul qilishgan. Shuning uchun ularni so'kib, urib, kesib bo'lmaydi, deb o'ylaganlar. Ayniqsa, mevali daraxtni kesish, o'tin qilib yoqish qattiq qoralangan.

Hatto kam hosil bersa yoki meva bermay qo'ysa, uning ildiziga qon to'kkanlar yoki bolg'a yoki arra olib uning oldiga borganlar. Shu bilan daraxt kelasi yili mo'l hosil beradi, deb o'ylaganlar.³⁵

Ba'zi afsonalarda ayrim o'simliklar afsonaviylashtirilib muqaddaslashtiriladi. Shunday afsonalarning birida **xiyol o'simligi** haqida ma'lumot beriladi. Aytishlaricha, u "muqaddas" emish. Xiyol o'simligini ko'rgan, qo'li bilan ushlagan kishi o'sha zahotiy oq qaldan ozib, u o'zidan-o'zi qo'shiq aytib, o'yinga tusharmish. Sergap bo'lib qolib, hech kimga so'z bermasmish. Bunday kishini ko'rgan, u bilan bir martaba suhbat qilgan kishi ham tez orada shunday dardga chalinib, u ham o'z-o'zidan qo'shiq aytib, o'z-o'zidan o'yinga tushib ketarmish. Gap gapiraverib hammaning joniga tegarmish...

Xalqimizning mifologik tasavvurlari orasida xayoliy va hayotiy qushlar bilan bog'liq e'tiqodiy inonchlar alohida o'rin tutadi. Totemistik va animistik qarashlarning izchil rivoji natijasida O'rta Osiyo xalqlari orasida qush kultiga ishonch shakllangan. Shu qarashlar zahirida ayrim qushlarni muqaddaslashtirish ko'zga tashlanadi. O'zbeklar orasida *Semurg'*, *Anqo*, *Humo singari mifologik va laylak*, *boyo'g'li*, *olashaqshaq*, *qaldirg'och*, *go'ngqarg'a*, *so'fito'rg'ay*, *bulbul kabi hayotiy qushlar haqida xalq qarashlari asosida yaratilgan afsonalar saqlanib kelayotir*.

Ularda ko'pincha ayrim qushlarning dastlab inson bo'lganligi, keyinchalik ma'lum bir voqea tufayli qushga aylanib qolganligi hikoya qilinadi. Jumladan, "Bulbul bilan To'rg'ay" afsonasida aytilishicha, To'rg'ay aslida so'fi ekan. Bir paytlar Xudoga shak keltirgani uchun to'rg'ayga aylantirilgan ekan. To'rg'ay, Bulbul aslida odam zotidan bo'lib, bir-birlari bilan qalin do'st, oshna-og'ayni ekan. Xudoyi taollo ularni qo'shiq aytitirib, musobaqa qildiribdi. "Kimda-kim ko'p va xo'b kuy va qo'shiq aytsa, el orasida qoladi, kuy-qo'shig'ini bog'u rog'larda aytadigan bo'ladi, yengilgan esa cho'lu biyobonga chiqib ketib, u yerda bo'zlab o'tadi", – debdi u .

Shundan keyin Bulbul bilan To'rg'ay navbatma-navbat kuy kuylab, qo'shiq ayta boshlashibdi. Bulbul ming bittaga yetkazibdi, To'rg'ay bo'lsa mingtaga yetkaza olibdi. Shunda Xudoyi taollo:

– Bulbul, sening makoning shu yerda – odamlar orasida bo'lsin, bog'-rog'larda kuylab yuraver. To'rg'ay, sening makoning esa cho'l bo'lsin, to mashhar kunigacha u yerlarda bo'zlab yuravergin, – debdi. Shu-shu bulbul gullar orasida, bog'-rog'lar ichida ishq-muhabbat, vafo va sadoqatdan kulasa, to'rg'ay cho'lu biyobonlarda alamidan

³⁵ Ўзбек халқ асотирлари. Жаҳон халқлари эртаклари. Ҳн жилдлик. 3-жилд. Ўзбек асотирлари, ҳикматлари, ривоятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.121.

bo'zlagani bo'zlagan emish.³⁶

“Ziyoratgoh” afsonasi ham bulbul haqida bo'lib, unda bulbulning bir zamonlar odam bo'lganligi, shoirlik qilib, ko'ringan joyda ishq-muhabbat, vafo va sadoqatdan kuyib-yonib, kunda ming o'lib, bir tirilib she'r o'qib, qo'shiq aytib yurganligi ta'kidlanadi. Ollo taolloning qudrati bilan mo'jiza ro'y berib, ana shu shoir bulbulga aylanib qolganmish. Kunlardan bir kuni kishilar bulbulning muhabbat, vafo va sadoqat navosini tinglaymiz deb boqqa kelishsa, u o'lib yotgan emish. Uni yuvib-tarab, kafanlab qabrga qo'yishibdi-da, xotirasiga maqbara ko'taribdilar. Shundan so'ng “Hazrati Xo'jam bulbul” degan muqaddas mozar paydo bo'libdi. Keyinchalik bu mozar sevib-sevilib yetisha olmaganlar, yonib-kuyib qovusha olmagan, ishq o'tida qovurilganlarning muqaddas ziyoratgohi, taskin maskaniga aylanibdi...³⁷

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek folklori materiallari ichida eng ko'p tarqalgan asarlar eposga, aniqrog'i uning kichik janrlaridan bo'lgan afsonalarga xosdir. Afsonalar nafaqat o'quv mashg'ulotlari, balki ijtimoiy hayotimizda ham juda ko'p ijro etiladi. Shuning uchun uning tarbiyaviy xususiyatlari borasida jiddiy kuzatishlar orlib borish maqsadga muvofiqdir. Afsona qahramonlarining jasorati, ibrat sifatida o'quvchilarga yetkazilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Авесто. А.Маҳкам таржимаси
- 2.Снесарев Г.П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – М.: Наука, 1983. – С.82
- 3.Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.28-29.
4. Ўзбек халқ асотирлари. Жаҳон халқлари эртаклари. Ўн жилдлик. 3-жилд. Ўзбек асотирлари, ҳикматлари, ривоятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.121.
5. Асотирлар ва ривоятлар. 1-китоб. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар М.Муродов ва М.Шайхова. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – Б.31.

³⁶ Асотирлар ва ривоятлар. 1-китоб. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар М.Муродов ва М.Шайхова. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – Б.31.

³⁷ Асотирлар ва ривоятлар. 1-китоб. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар М.Муродов ва М.Шайхова. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – Б.31.